

## ZAMONAVIY MEDIA MAKONDA INTERNET VA UNDA AXBOROT ALMASHINUVINING O'ZIGA XOSLIGI

Jamolova Jasmina

O'zbekiston jurnakistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Teleradio jurnalistikasi  
yo'nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Zamnaviy media makonida internet axborot almashinuvida tezkorlik, interaktivlik, global qamrov va kontent xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Internet orqali axborot tezda tarqaladi, auditoriya esa passiv tomoshabin bo'lmay, faol ishtirokchi sifatida kontent yaratish, baholash va muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, algoritmlar yordamida personalizatsiya qilingan kontent foydalanuvchilarga yetkaziladi, ijtimoiy tarmoqlar esa bu axborotni yanada keng auditoriyaga tezkor va samarali tarzda tarqatadi. Bu xususiyatlar media makonining o'zgarishi va global axborot olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Internet, media, jurnalistika, axborot, axborot almashinuvi

Hozirgi dunyo ulkan axborot oqimi girdobidadir. Mazkur axborot oqimining asosiy qismi, shuningdek, inson qalbi va ongiga ta'sir etuvchi nufuzi, asosan ommaviy axborot vositalari zimmasiga to'g'ri keladi. Umuman ommaviy aloqalarsiz (axborot almashuvisz) insoniyat jamiyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Dunyodan chegaralangan "qobiq ichidagi jamiyat" shubhasiz, inqirozga mahkum. Tariximizning suronli yillari bunga misol. Sobiq SSSR davlatining inqirozi buning yaqqol isbotidir. Bundan xulosa shuki, axborot bilan to'kis ta'minlangan jamiyatlar, axborot tizimi cheklangan jamiyatlarga nisbatan taraqqiyot va mustahkam asosga egadir.

Axborot (Informasiya) termini "information" lotincha so'zdan olingan bo'lib, ma'lumot berish, tushuntirish ma'nosini anglatadi<sup>29</sup>. Qadimdan bu tushuncha orqali odamlar o'rtasida og'zaki, yozma va boshqa usullar vositasida ma'lumot almashinish tushunilgan. "Informasiya" tushunchasiga keng, har tomonlama izohni kibernetika beradi. Uning asoschisi Nobert Viner shunday yozadi: "Informasiya bu tashqi olamdan olingan ma'lumot mohiyatiga bizning moslashuvimiz va bizning xis-tuyg'ularimiz moslashuvi jarayoni bilan izohlanadi"<sup>30</sup>. Ikkinchi tomonidan "informasiya" tushunchasi "ma'lumot bilan ta'minlangan, ya'ni axborot uzatish va uni ommaviylashtirish" ma'nosini ham anglatadi. Axborot - inson va jamiyat hayotidagi o'ziga xos hodisadir. Bir tomondan, axborot bu inson va jamiyatning mavjudlik sharoitlariga moslashuv imkoniyatini

<sup>29</sup> Nesterenko F.P., Irnazarov K.T., Mamatova Y.M. Lug'at-ma'lumotnomasi: jurnalistika, reklama, publik rileyshnz. - T., Zar qalam, 2003. 48-b.

<sup>30</sup> Принципы международной журналистики и международный обмен информацией. -М., 1999. С.5.



ta'minlovchi, atrofimizdagi dunyo haqidagi bilimlarni yig'ish vositasi bo'lib, ular asosida inson va jamiyat o'z ehtiyojlarini qondirish va manfaatlarini amalga oshirish maqsadlarida to'g'ri keladigan harakat yo'nalishini tanlashadi. Masalan, "ko'chada yomg'ir yog'yapti" degan axborot sayrga otlangan kishi uchun soyabon olish zarurligi haqida qaror qabul qilishga yordam beradi.

Boshqa tomondan, axborot bu - insonni, uning harakatlarini, jamoat tashkilotlari faoliyatini, davlat hokimiysi organlarini, texnik tizimlarni boshqarish vositasidir. Axborot muloqoti shaxsni tarbiyalash, ta'lim berish va shakllantirishning asosini hosil qiladi. Axborot insonga ijtimoiy va texnik me'yorlarning mazmunini yetkazish, uni ushbu me'yorlarga amal qilmaslikning bo'lg'usi salbiy oqibatlari haqida ogohlantirishning yagona vositasi hisoblanadi.

Axborot tushunchasi har qanday izohlanmasin, shu narsa ma'lumki, usiz hech bir shaxs va jamiyat mavjud bo'la olmaydi. Bu yerda bir jihat, axborotning sifati, mohiyati, xarakteri va yo'nalishi alohida ahamiyatga ega. Har qanday informasion cheklash, shuningdek dezinformasiya ham bir xilda shaxs va jamiyat inqirozini taqozo etadi. Jamiyatshunoslar bejiz, axborotning ko'plab to'planishi, jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi, deb ta'kidlashmaydi. Totolitar tuzumlarda informasiyani tarqatishdan maqsad ma'lum mafkuralarni shakllantirishga qat'iy e'tibor berish edi. (Demak, informasiyaning xarakteri va mohiyatining ahamiyati beqiyos). Demokratiyaga asoslangan mamlakatlarda axborot erkin, hur fikrlilikka asoslanadi. To'g'ri, ideal axborot almashuviga asoslangan ideal jamiyatni hali tarix ko'rmadi. Shunday bo'lsada, axborotning xuddi havo va suvdek zaruratini his etamiz. Antuan De Sent Ekzyuperi "Haqiqiy yagona dabbaba – bu odamlar o'rtasidagi aloqalar, muomalalar dabdabasidir" degan ekan. Biz bu o'ringa shu narsani qo'shimcha qilamizki, axborotsiz hech qanday aloqa bo'la olmaydi.

Shuningdek, axborot – bu hokimiyat. Kimki unga ega bo'lsa, u vaziyat qiroli, vaziyatni boshqara oladi. Shuning uchun qadimdan axborot qabila boshliqlaridan tortib, siyosiy amaldorlarning asosiy quroli bo'lib kelgan. Keng ommaga esa ular loyiq topgan, saralangan axborotni tarqatganlar. Tarixning ma'rifiy inqilob pallalarida mana shu informasion monopoliyalarga zarba berilgan. Hozirda ham informasiya uchun kurash, uni erkin qo'lga kiritishga intilishlar sodir bo'layapti. Bu o'z navbatida matbuot va so'z erkinligini taqozo etadi.

Axborot bu shuningdek, tovar (mahsulot) bo'lib, moddiy daromad manbai hamdir. Rivojlangan davlatlarda axborot biznesi orqali katta-katta daromad qilayotgan yirik media magnatlari va media korporasiyalar mavjud. Axborot funksiyalari turli-tuman. Axborotning oliy shakli – ijtimoiy haqiqatni aks ettiruvchi sotsial axborotdir. Aynan shu turdag'i axborot ilmiy dunyoqarash, ijtimoiy fikr va bilimning shakllanishini ta'minlaydi.





Internetdan foydalanish imkoniyati bugungi kunda, o'tgan asrda xuddi kutubxonalardan foydalanish imkoni singari «madaniy huquq» (cultural right) tamoyilining talabi sanaladi. Va shu sabab xam BMT Bosh Assambleyasining yigilishida (La Rue, 2011) «Internetdan foydalanish insonning o'z fikrini bildirish uchun zarur instrument bo'lib, aholining o'z huquqlaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi»<sup>31</sup> deb ta'kidlangan.

Har qanday kommunikasiya singari veb-muhitdagi axborot almashinuvi jarayoni ham bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Internet olamida ma'lumot almashinuvi holati bilvosita kommunikasiya jarayoniga taalluqli bo'lib, uning imkoniyatlari Internet imkoniyatlari singari kengdir.

Jahon OAVning Internetda taraqqiy topishining o'tgan bosqichi Internet-jurnalistikani alohida axboriy faoliyat turi sifatida belgilash va unga xos xususiyatlarni ajratish imkonini beradi. Internetning OAV sifatidagi o'ziga xos jihatlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish lozim:

- tarmoqning global miqyosga ega ekani;
- ma'lumotlar uzatishdagi tezkorlik
- ish jarayonining markazlashtirilmagani;
- hamma uchun ochiqligi;
- foydalanuvchi tomonidan nazorat qilinishi;
- iqtisodiy jihatdan qulayligi<sup>32</sup>.

Aynan mazkur jihatlar undagi auditoriyani xarakterlaydi deyish mumkin. Internet bilan bog'liq tushunchalar qatorida doimiy ravishda biz globallik, interfaollik, nomarkazlashganlik, raqamlashtirish va tezkorlik kabilarni nazarda tutamiz. Veb-kontent ma'nosida ham aynan mazkur tushunchalar uning xususiyatlarini aks ettiradi, deyish mumkin. Internet muhitida berilayotgan ma'lumotlar ushbu ko'satkichlarga ega bo'lмаган taqdirda onlayn jurnalistikaning to'liq talablariga javob bera olmaydi.

Globallik bu axborot va axborot oluvchilarining global miqyosga ega ekani bilan izohlansa, interfaollik, o'z navbatida auditoriya va OAV o'rtasida o'zaro ikki tomonlama muloqotning mavjudligini nazarda tutadi. Gipermatnlik esa boshqa hech bir OAVda mavjud bo'lмаган jihat sanalib, bir sahifa ortida mislsiz ko'p manbalarga chiqish imkoniyatini ifodalaydi. Veb-sahifaning arxivlashtirilgan resurs sifati raqamli shaklda nashrning ancha oldingi ma'lumotlari bilan tanishish imkoniyati tushuniladi. Aynan

<sup>31</sup> Measuring cultural participation. UNESCO-U1S. 2012. P. 25-27.

<sup>32</sup> Nozima Muratova, Nargis Qosimova, Gulnoza Alimova, A'зам Dadaxonov, Azizaxon Ilyosxonova, Sitora Xolmatova, Nigina Xakimova: Jurnalistika “Onlayn jurnalistika va mediada yangi trendlar” –T.: O'zbekiston, 2019. 77-b.



mazkur xususiyatlar internetdan foydalanuvchilar sonining yildan-yilga ortib borishiga sabab bo'ldi.

Qator o'ziga xos jihatlari bo'lismiga qaramay Internet - jurnalistika bir qancha xususiyatlarni an'anaviy OAV turlaridan olgan. Bosma nashrlardan tashkiliy jihatlarni, radiodan tezkorlik, jonli efirni, TV jurnalistikadan esa ko'rgazmalilik va tasvir imkoniyatlarini o'zlashtirgan.

Internet auditoriya dialogi nuqtai nazaridan bugun ushbu komponentlar onlayn muhitda samarali kommunikasiyani amalga oshirish imkonini yaratadi deyish mumkin. Negaki, ushbu kommunikasion jarayon:

- global miqyosga ega bo'ladi;
- raqamli formatda kechadi;
- tekzor amalga oshiriladi;
- interfaol imkoniyatlar tufayli ikki tomonlama aloqaning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi;
- hamda ushbu kommunikasion jarayon uchun markazlashtirilgan tizim emas, nomarkazlashgan katta tarmoqqa ega tizim zamin yaratadi<sup>33</sup>.

Bugungi kun insonlari kundalik hayotini axborot yoki yangiliklarsiz tasavvur eta olmaydi. Zamonaviy media makonda juda katta hajmdagi axborotlarni auditoriya har kuni qabul qilyapti. "Buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillaridan nafaqat professional bilim va malaka, hayotiy tajriba, o'z so'zi uchun ma'sulyati hissi, ayni vaqtda yuksak grajdaniq positsiyasi, ma'naviy jasorat ham talab etiladi"<sup>34</sup>. Bugun biz yashayotgan shiddatli XXI asrda zamonning o'zi, hayotimizga keskin sur'atlar bilan kirib kelayotgan globallashuv jarayonlari O'zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar ahli oldiga bizning ezgu maqsadimiz bo'lgan demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lida go'yat muhim, dolzarb vazifa va talablarni qo'ymoqda".<sup>35</sup> Darhaqiqat, jahonda sodir bo'layotgan dolzarb mavzular, hodisalar, voqealarni eng birinchi OAV orqali kuzatamiz. Bu borada auditoriyaga tezkorlik, xolislik, aniqlik kabi tamoyillar birlamchi ahamiyatga ega. Hozirgi kunda axborot olish va axborot tarqatish maydoni sifatida internetning hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Global tarmoq, globallashuv axborot va ommaviy axborot vositalari tushunchasini ham tubdan o'zgartirib yubordi. Bu haqida so'z yuritganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev quyidagi fikrlarni aytadi: "Internet hayotimizga tobora chuqr kirib borayotganini alohida qayd etish lozim. Hozirgi vaqtida global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy

<sup>33</sup> Nozima Muratova, Nargis Qosimova, Gulnoza Alimova, A'zam Dadaxonov, Azizaxon Ilyosxonova, Sitora Xolmatova, Nigina Xakimova: Jurnalistika "Onlayn jurnalistika va mediada yangi trendlar" –T.: O'zbekiston, 2019. 77-b.

<sup>34</sup> <http://xs.uz/uzkr/post/prezident-tabrigi-matbuot-va-ommavij-akhborot-vositalari-khodimlariga>

<sup>35</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. "Xalq so'zi", 2018 yil 28-iyun,





tillarda faoliyat ko'rsatayotgani, ushbu yo'nalishda yangi ijodiy avlod – Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e'tiborga sazovordir. Haqiqatdan ham internet jurnalistlar faoliyatida yangi shakl va uslublarni joriy etdi. Bu borada muammoning yana bir jihatini e'tibordan qoldirmaslik kerak eng avvalo, internet aniq va noaniq bo'lgan axborot manbaidir. Ikkinchidan, bu global tarmoqda auditoriya ham axborot iste'molchisi, ham axborot tarqatuvchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi. U o'zida juda ko'p manbalar va manzillarni jamlagan.

Bu yil ham internet jurnalistika bo'yicha "Eng yaxshi jurnalistik material uchun" nominatsiyasi g'oliblari taqdirlandi. Turkiston" saroyida "Oltin qalam" milliy mukofoti uchun XV tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi o'tkazildi. (03.05. 2021).

"Eng yaxshi jurnalistik material uchun" nominatsiyasi bo'yicha birinchi o'ringa "kun.uz" internet sayti muxbiri Abror Zohidov internet tarmog'ida mamlakatimiz hayotining turli sohalaridagi islohotlar tezkor va tahliliy yoritilgan materiallari uchun loyiq topildi.

Ikkinchi o'ringa O'zA bosh muharriri Abdujalol Taypatov ijtimoiy-ma'naviy mavzudagi materiallari uchun munosib ko'rildi.

Uchinchi o'rin Nuz.uz internet nashri muxbiri Oliya Taishevaga dolzarb mavzudagi tanqidiy-tahliliy materiallari uchun berildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. –T.: Universitet, 2008.
2. Мухаммад ал-Бухари. Проблемы международного обмена информации в условиях современных международных отношений. -Т. 2004.
3. X.Do'stmuhammad Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. -T.: O'zbekiston, 2005.
4. Жўрабоев А. Оммавий ахборот воситалари еркинлигини таъминлаш кучли фуқаролик жамиятини барпо етишининг муҳим шартидир. //www.google.com

